TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ALIYEV OLIMBEK AYBEKOVICH

DAVLAT AXBOROT XAVFSIZLIGI SIYOSATIDA JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MILLIY VA XORIJIY JIHATLARI

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UO‘K: 323:316.77(043.3)

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по политическим наукам

Contents of Dissertation Abstract
of the Doctor of Philosophy (PhD) on Political Sciences

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ALIYEV OLIMBEK AYBEKOVICH

DAVLAT AXBOROT XAVFSIZLIGI SIYOSATIDA JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MILLIY VA XORIJIY JIHATLARI

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.4.PhD/Ss237 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (https://uzswlu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Qirg‘izboyev Muqimjon** siyosiy fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Jo‘rayev Sayfiddin Axmatovich** siyosiy fanlar doktori, professor
	Yuldashev Anvar Ergashevich tarix fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “14” dekabr soat 10^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (71) 2333424; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “____”_____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “____” _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.B.Sayfullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

D.I.Madaminova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, siyosiy fanlar doktori, dotsent

E.S. Sultonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot xavfsizligini ta’minlash muammosi inson, jamiyat va davlat manfaatlarini amalga oshirish hamda uni himoya qilishda hayotiy zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot xavfsizligiga tahdidlardan biri – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘zlarining buzg‘unchi maqsadlari yo‘lida foydalanayotganliklari insoniyatga nisbatan qaratilgan siyosiy-ijtimoiy hurujdir. Siyosiy maqsadni ko‘zlab tarqatilayotgan axborotlarni soxtalashtirishga urinishlar mamlakatlarning strategik ahamiyat kasb etuvchi infratuzilmalariga zarar yetkazayotganligi tobora oydinlashib bormoqda. Bu esa axborot-mafkuraviy omillarning obyektiv va subyektiv jihatlarini aniqlashga hamda turli xildagi g‘oyaviy xavf-xatarlarning oldini olishning samarali usullari, vositalari va yo‘llarini ishlab chiqishga doir tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Axborot makonida vujudga kelayotgan noodatiy chaqiriqlar davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlash masalalariga yangicha yondashuvlar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Natijada dunyoning ilg‘or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro tahlil markazlarida axborot xavfsizligini ta’minlashga doir muammolarni tadqiq etishga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, axborot xavfsizligining milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikka ta’sirini inobatga olgan holda, unga tahdid solayotgan xavflarga qarshi kurashishning samarali vositalari va chora-tadbirlarini ishlab chiqish ilmiy tadqiqotlarning obyekti va nazariy-metodologik asosini tashkil etmoqda.

O‘zbekistonda axborot erkinligi va ochiqligini ta’minlash, shuningdek, axborot xurujlariga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosati dunyodagi murakkab vaziyat, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu boisdan O‘zbekistonda davlat axborot xavfsizligi siyosatida jamiyat barqarorligini ta’minlash masalalari bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “internet jahon axborot tarmog‘idan to‘siqlarsiz foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni ta’minlash hamda fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish”ga[1] doir maqsad sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (2017-yil 7-fevral, PF-4947-son), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 19-fevral, PF-5349-son), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi (2022-yil 28-yanvar, PF-60-son) Farmonlari, “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11- сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони// https://lex.uz/docs/6600413

konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2019-yil 8-aprel, F-5465-son) Farmoyishi, “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 22-noyabr, PQ-4024), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi (2019-yil 2-fevral, PQ-4151), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot tuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2023-yil 31-may, PQ-167) Qarorlaridan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekistonni barqaror va izchil rivojlantirish, jamiyatda barqarorlikni ta’minlashda axborot xavfsizligini saqlashning siyosiy texnologiyalarini yanada takomillashtirish jarayonlariga oid konseptual va strategik g‘oyalari tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi[2].

Zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini uch guruhga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruh. O‘zbekistonda davlat axborot xavfsizligi siyosatining jamiyat barqarorligiga ta’siriga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan S.K.Ganiyev, Z.T.Xudoykulov, N.B.Nasrullayev, A.E.Yuldashev, I.Islamov, I.M.Karimov, N.A.Turgunov, Sh.Gulomov, F.B.Botirov, Z.I.Azizova, D.Akbarov, D.S.Muitov, U.R.Kushayev N.B.Nasrullayev, N.Qosimova va N.Umarova kabi olimlar aynan bizning mavzuyimizda bo‘lmasa-da, unga yaqin bo‘lgan axborot xavfsizligining AKT, texnologik va texnikaviy jihatlari, axborotning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri hamda axborot iste’moli madaniyati bilan bog‘liq tomonlarini tadqiq etganlar. Siyosiy fanlar nuqtayi nazaridan Sh.Murodova, H.Rajabov va M.Q.Yuldashevalar o‘z tadqiqotlarini olib borganlar.

Ikkinchi guruh. MDH mamlakatlari doirasida G.A.Atamanov, O.M.Manjueva, M.Yu.Zaxarov, Ye.Ye.Perchuk, O.I.Nemkina, Yu.A.Kaptyug, O.M.Sidenova, A.V.Polikarpov, V.F.Nitsevich Yu.V.Vovendo Sh.K.Raximzoda, O.A.Melnikova, A.V.Kurilkin, S.N.Fedorchenko, A.B.Romashkina va boshqalar

[2] Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent:O‘zbekiston, 2017. – 48 b.; Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.; Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.; Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild.–Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 592 b.; Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

axborot urushi, axborot terrorizmi, axborot quroli, axborot xavfsizligini ta’minlashning huquqiy-psixologik mexanizmlari, virtual olam va inson turmush tarzining o‘zaro aloqadorligi hamda axborot xavfsizligi muammolarining kelib chiqishiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Uchinchi guruh. Bu sohaga oid muammolar bilan shug‘ullangan xorijlik olimlardan S.Xantington, F.Fukuyama, D.Bell, A.Toffler, M.Kastels, U.Rostou, P.Druker, Dj.Gelbreyt, V.Inozemsev, F.Uebster, A.A.Chyernov, R.F.Abdeev, I.S.Melyuxin[3] kabilarning ishlarini alohida qayd etish kerak. Bu olimlar axborot va axborot xavfsizligiga oid nazariyalarga asos soldilar. Ularning “postindustrial jamiyat” va “axborotlashgan jamiyat” konsepsiyalarida axborot xavfsizligi muammolari tadqiq qilingan.

Shu bilan birga, ularning tadqiqotlari mavzulari va tadqiqot obyektlari bizning dissertatsiyamiz mavzusidan keskin farqlanadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasini tahlil etish shuni ko‘rsatdiki, hozirgi davrga qadar davlat axborot xavfsizligi siyosatida jamiyat barqarorligini ta’minlash masalalari maxsus dissertatsiya sifatida tadqiq etilmagan. Shu tufayli biz o‘z dissertatsiyamizda davlat axborot xavfsizligi siyosatida jamiyat barqarorligini ta’minlash masalalariga oid mavzuni tanladik.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasidan o‘rin olgan hamda “Fuqarolik jamiyati nazariyasi” kafedrasining “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish muammolari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamiyat barqarorligini ta’minlash jarayonida davlatning milliy va axborot xavfsizligi siyosatini amalga oshirish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: axborot xavfsizligiga doir tushunchalar tavsifini shakllantirish;

axborot xavfsizligining metodologik jihatlari – kategorial obzor va xalqaro xavfsizlik tizimi evolyutsiyasi, uni jamiyatning barqarorligi omili ekanligini ochib berish;

AQSh, Yevropa Ittifoqi va Xitoy axborot xavfsizligi takomillashishi hamda tajribasini tahlil etish;

O‘zbekistonda davlat axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish;

O‘zbekiston axborot xavfsizligiga kibertahdidlar va ularga qarshi kurash jarayonini tahlil etish;

O‘zbekistonda axborot xavfsizligi tizimini yanada rivojlantirish jarayoni va uning istiqbollarini ilmiy jihatdan tavsiflab berish;

[3] Mazkur tadqiqotchilarning asarlari dissertasiya asosiy matni havolalari va “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati”da berilgan.

O‘zbekistonda axborot xavfsizligini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirishga oid xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini O‘zbekistonda jamiyat barqarorligini ta’minlash tizimini mustahkamlashda davlat axborot siyosati o‘rnining oshishi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini jamiyat barqarorligini ta’minlashda davlatning axborot xavfsizligi sohasidagi siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari va mazkur jarayonda vujudga keladigan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, ilmiy bilishning dialektika, tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, kuzatuv, so‘rov kabi tadqiqot usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Jahonda axborot xavfsizligini ta’minlashining yagona va universal mexanizmi ishlab chiqilmagani, senzura va axborot oqimlarini cheklashga qaratilgan davlat siyosatining kutilgan darajada samara bermasligi hamda davlat va jamiyat barqarorligini ichki va tashqi axborot xurujlaridan muhofaza etishda mamlakatlar o‘z milliy kontentlarini yaratishga asosiy e’tibor qaratayotgani “axborotga qarshi axborot” tamoyilidan foydalanishga asos bo‘lishi dalillangan.

Axborot asrida an’anaviy jamiyat axborotlashgan jamiyatga aylanib, o‘zaro qo‘shilgan holda konvergensiya hosil qilishi, axborot xavfsizligiga qarshi xavf-xatar va tahdidlardan himoyalanish bilan bog‘liq konfidensiallik, axborot resurslariga kirish, metatexnologiyalar hamda AQSh, Xitoy va Yevropa davlatlarining axborot xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tajribasiga asoslanib, “Uz” domeni orqali ro‘yhatga oluvchi O‘zbekiston axborot milliy tarmog‘i (UZNET) dasturini ishlab chiqish zarurati asoslab berilgan.

Axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiga aylangan kiber va gibrid jinoyatchilikka karshi kurashni kuchaytirish, kibertahdidlarning oldini olishga qaratilgan kiberprofilaktika ishlarini uzluksiz davom ettirish, mafkuraviy, diniy va siyosiy adovatni qo‘zg‘atish mazmunidagi buzg‘unchi g‘oyalarning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadlaridan kelib chiqib, mahalla institutlarida “Kiberxavfsizlik” jamoatchilik markazlarini tashkil etish taklifi dalillangan.

O‘zbekiston axborot maydonida qonunchilikka rioya etilishini ta’minlash, axborotdan foydalanish savodxonligi va madaniyatini yuksaltirish hamda aholini yot va destruktiv ma’lumotlar ta’siridan himoya qilish, kiberterrorizm va radikallashuvning oldini olish kabi vazifalarni maqsad qilgan davlat axborot xavfsizligi siyosatidan kelib chiqib, milliy axborot xavfsizligini ta’minlashning samarali mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi “O‘zbekiston milliy axborot xavfsizlik strategiyasi”ni qabul qilish zarurligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Axborot xavfsizligi siyosati tushunchasining paydo bo‘lishi hamda takomillashishiga doir qarashlarning mazmun-mohiyati o‘rganildi, jahonning yetakchi olimlarining ilmiy-nazariy qarashlari tahlil qilindi, O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatini tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari aniqlashtirildi.

O‘zbekistonda axboriy tahdidlarning intellektuallashuvi sharoitida axborot xavfsizligi siyosati uchun ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar mazmunini boyitish, axborot xavfsizligi sohasida milliy manfaatlarimizni himoya qilish maqsadida ishlab chiqilgan milliy kontentdan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatiga kirgan maxsus va xorijiy mamlakatlar jurnallarida chop etilgan maqolalar, xulosa, amaliy taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* axborot xavfsizligi siyosatiga doir ilmiy ta’limotlarning takomillashuvi, siyosiy institutlar, siyosiy jarayonlar va siyosiy texnologiyalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kontekstida amalga oshiriladigan tadqiqotlar, yaratiladigan darslik, uslubiy qo‘llanmalar uchun nazariy manba sifatida foydali bo‘lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari amaliy siyosatshunoslik, amaliy jurnalistika, internet jurnalistikasi, media nazariyasi, OAV nazariyasi, axborot xavfsizligi fanlarini ilmiy-uslubiy jihatdan boyitadi.

Dissertatsiyaning *amaliy ahamiyati* shundaki, oliy ta’lim muassasalarida “Mudofaa va xavfsizlik” hamda “Ochiq tizimlarda axborot-psixologik xavfsizlik” predmetidan ta’lim beruvchi professor-o‘qituvchilarning malaka oshirish amaliyotida, ularning siyosiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun o‘quv-treninglarni o‘tkazishda, siyosiy kommunikatsiya modellarini takomillashtirishda foydalanish nazarda tutilgan. Shuningdek, dissertatsiya materiallari OTM ijtimoiy-gumanitar sohada ta’lim olayotgan talabalar uchun o‘qitilayotgan “Axborot xavfsizligi” fani bo‘yicha o‘quv materiallari sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davlat axborot xavfsizligi siyosatida jamiyat barqarorligini ta’minlash masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, tavsiya va takliflar asosida quyidagilarga erishildi:

Jahonda axborot xavfsizligini ta’minlashning yagona va universal mexanizmi ishlab chiqilmagani, senzura va axborot oqimlarini cheklashga qaratilgan davlat siyosatining kutilgan darajada samara bermasligi hamda davlat va jamiyat barqarorligini ichki va tashqi axborot xurujlaridan muhofaza etishda mamlakatlar o‘z milliy kontentlarini yaratishga asosiy e’tibor qaratayotgani “axborotga qarshi axborot” tamoyilidan foydalanishga asos bo‘lishi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ 764-sonli “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonunining “Kiberxavfsizlikni ta’minlashning asosiy prinsiplari” deb nomlangan 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2023-yil 1-maydagi 13-son ma’lumotnomasi*). Natijada,

kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishning ustuvorligini ta’minlashning huquqiy asoslari yaratilgan.

Axborot asrida an’anaviy jamiyat axborotlashgan jamiyatga aylanib, o‘zaro qo‘shilgan holda konvergensiya hosil qilishi, axborot xavfsizligiga qarshi xavf-xatar va tahdidlardan himoyalanish bilan bog‘liq konfidensiallik, axborot resurslariga kirish, metatexnologiyalar hamda AQSh, Xitoy va Yevropa davlatlarining axborot xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tajribasiga asoslanib, “Uz” domeni orqali ro‘yhatga oluvchi O‘zbekiston axborot milliy tarmog‘i (UZNET) dasturini ishlab chiqish zarurati haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ 764-sonli “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonunining “Kiberxavfsizlikni ta’minlashning asosiy prinsiplari” deb nomlangan 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2023-yil 12-apreldagi 12-son dalolatnomasi*). Natijada, O‘zbekistonda modernizatsiya va islohotlar amalga oshirilayotgan davrda xavfsizlik tizimining shakllanishi, dinamikasi va istiqbollari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni to‘g‘ri hal etishga hamda mazkur tizim taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiga aylangan kiber va gibrid jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, kibertahdidlarning oldini olishga qaratilgan kiberprofilaktika ishlarini uzluksiz davom ettirish, mafkuraviy, diniy va siyosiy adovatni qo‘zg‘atish mazmunidagi buzg‘unchi g‘oyalarning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadlaridan kelib chiqib, mahalla institutlarida “Kiberxavfsizlik” jamoatchilik markazlarini tashkil etish borasidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar” dasturining “Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat” va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borishga oid tadbirlar” nomli III bandida belgilangan “Axborot hashari” loyihasini amalga oshirish, uning doirasida “internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi noxolis axborotlarga qarshi aholi, ayniqsa, yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va jamoatchilikda muayyan holatlar haqida haqqoniy fikr shakllanishiga ko‘maklashish”ga bag‘ishlangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar markazining 2023-yil 19-iyundagi 228-son dalolatnomasi).* Natijada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida olib borilayotgan axborot xavfsizligi siyosatining mazmun-mohiyati haqida yoshlarning chuqur bilimlarga ega bo‘lishlarini ta’minlashga doir zamonaviy targ‘ibot texnologiyalarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

O‘zbekiston axborot maydonida qonunchilikka rioya etilishini ta’minlash, axborotdan foydalanish savodxonligi va madaniyatini yuksaltirish hamda aholini yot va destruktiv ma’lumotlar ta’siridan himoya qilish, kiberterrorizm va radikallashuvning oldini olish kabi vazifalarni maqsad qilgan davlat axborot xavfsizligi siyosatidan kelib chiqib, milliy axborot xavfsizligini ta’minlashning samarali mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi “O‘zbekiston milliy axborot xavfsizlik strategiyasi”ni qabul qilish zarurligi bilan bog‘liq xulosalardan “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida 2022-yil oktyabrga qadar “2023–2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik strategiyasi”ni ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan farmon va qarorlarida belgilangan “UZ№ domen zonasi Internet-makonining kiberxavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari hamda elektron hukumat, energetika, raqamli iqtisodiyot tizimlari va muhim axborot infratuzilmasiga taalluqli boshqa yo‘nalishlarni himoya qilish bo‘yicha kompleks vazifalar ijrosini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan *(Yoshlar ishlari agentligi Andijon bo‘limining 2022-yil 18-noyabrdagi dalolatnomasi).* Natijada yoshlar agentligi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlar va yoshlarning axborot xavfsizligi, kiberjinoyatchilik, kiberterrorizm borasidagi siyosiy bilimlari, manaviy-ma’rifiy, huquqiy, siyosiy madaniyatini oshirishga va yoshlar ishlari faoliyatining samaradorligining kuchaytirilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika, 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, to‘qqiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 166 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Jamiyat barqarorligini ta’minlashda axborot xavfsizligi siyosatini tadqiq etishning metodologik jihatlari**” deb nomlangan

birinchi bobida axborot xavfsizligiga doir tushunchalar tavsifi, xalqaro axborot xavfsizligi tizimining shakllanishi va rivojlanishi hamda axborot xavfsizligi – jamiyat barqarorligini ta’minlash omili ekanligi tadqiq etilgan.

Jahon miqyosidagi axborot xavfsizligi muammolari o‘zini tahlikali va tajovuzkorona tarzda namoyon qila boshlaganidan keyin unga doir tushunchalar shakllandi. BMTning xalqaro axborot xavfsizligiga oid qo‘llagan tushunchasi – bu “tahdidlar triadasi” deb ataladigan – terrorchilik, jinoiy va harbiy-siyosiy (harbiy-siyosiy tahdid deganda axborot urushlari va axborotlar o‘zaro kurashi tushuniladi) kabilardan global axborot tizimlarining himoyalanganligini anglatadi.

AQSh va Yevropa Ittifoqi (YI) kiberxavfsizlikka nisbatan eng asosiy tahdidlar sifatida kiberterrorizm va kiberjinoyatchilikni ko‘rsatib, kiberkenglikdagi davlatlararo o‘zaro kurashlarni xalqaro gumanitar huquq doirasida muvofiqlashtirishni tavsiya qiladi[4]. BMT tomonidan 2011-yil 22-sentyabrda qabul qilingan “Xalqaro axborot xavfsizligini ta’minlash” konvensiyasining 2-moddasida “axborot xavfsizligi”ni “shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini axborot kengligida destruktiv tahdidlar va boshqa noxush ta’sirlardan himoyalanganlik holati” deb ta’riflanadi[5].

Xalqaro miqyosda tadqiqot olib borayotgan olimlardan R.Xandli va R.Anderson o‘z tadqiqotlarida AQSh axborot infratuzilmalariga tahdidlarga bog‘liq holda axborot xavfsizligi muammolarining yechimlarini topish jarayonlarida kompyuter, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni himoya qilishning texnologik jihatlarini axborot xavfsizligi sifatida ilgari surdi[6].

Axborot xavfsizligini quyidagicha ta’riflash mumkin: bu sotsium holati bo‘lib, bunda davlat, jamiyat va shaxsga nisbatan axborot makonidagi tartibli va stixiyali ravishda vujudga keladigan axborot oqimlari orqali bo‘ladigan tahdidlardir. Axborot xavfsizligi deganda – shaxs, jamiyat va davlatning muhim hayotiy manfaatlarining axborot urushi, intervensiya hamda dezinformatsiya tazyiqlaridan himoyalanganligi tushuniladi. Umuman olganda, olimlar axboriy-siyosiy xavfsizlik deganda fuqarolar, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlarini siyosiy sohada ichki va tashqi axborot tahdidlaridan himoya qilish bilan bog‘liq kompleks muammolar tushuniladi.

Jahon axborot maydoni doirasida 1973-yilda qabul qilingan Xalqaro telekommunikatsiya konvensiyasi dastlabki axborot xavfsizligiga oid rasmiy hujjat edi. Bu Konvensiya axborot qurollarini qo‘llash oqibatlari va bu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan axborot maydonlarining shakllanishiga bog‘liq holda qabul qilingan.

1998-yil 4-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan “Xalqaro xavfsizlikda axborotlashish va telekommunikatsiya sohalarida yutuqlar” nomli hujjat subyekti

---

[4] Зиновьева Е.С. Международная информационная безопасность. 20.06.2014 г. [Elektron manba]: https://mgimo.ru/ about/ news/ experts/ 256505/.

[5] Конвенция об обеспечении международной информационной безопасности (концепция) ООН. 22 сентября 2011 г. [Elektron manba]: https://www.mid.ru/ mezdunarodnaya informacionnaya bezopasnost/-/asset publisher/UsCUTiw2pO53/ content/ id/ 191666.

[6] Hundley, R.; Anderson, R. Security in Cyberspace: An Emerging Challenge for Society, 1994.

axborot, axborot texnologiyasi va ulardan foydalanish usullari bo‘lgan butunlay yangi xalqaro huquqiy rejimni tashkil etishning rasmiy jihatdan boshlanishi bo‘ldi[7]. BMT Bosh Assambleyasida 2000-yil bu hujjat mavzusi muhokama qilinib, unda “axborot quroli”, “axborot urushi” va “axborot xavfsizligi” kabi tayanch (bazaviy) tushunchalarni aniqlashtirish va shakllantirish tavsiya etildi[8].

2011-yil 22-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasi “Xalqaro axborot xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risidagi konvensiya”ni qabul qildi. Uning asosiy maqsadi qilib, “xalqaro tinchlik va barqarorlikni buzish uchun foydalanilayotgan AKTga qarshilik qilish, shuningdek, davlatlar axborot maydonidagi faoliyatlariga ko‘maklashishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi[9]. 2016-yilda Rossiya Federatsiyasining taklifi bilan 84 ta davlat hammuallifligida “Xalqaro xavfsizlik kontekstidagi axborotlashish va telekommunikatsiyalar sohasidagi yutuqlar” yangi rezolyutsiya loyihasi qabul qilindi.

2018-yil 22-oktyabrda BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida BMTning “Xalqaro xavfsizlik kontekstidagi axborotlashish va telekommunikatsiyalar sohasidagi yutuqlar” nomli navbatdagi rezolyutsiyasi qabul qilindi[10]. 2021-yil 12-martda BMT Ochiq tarkibdagi ishchi guruhining “Xalqaro xavfsizlik kontekstidagi axborotlashish va telekommunikatsiyalar sohasidagi yutuqlar” nomli ma’ruzasi qabul qilindi. Ma’ruzani barcha ishtirokchi davlatlar o‘zaro kelishuv asosida qabul qildi.

Xalqaro axborot maydonida keyingi besh yillikda kiberjinoyatchilikning yangidan yangi takomillashgan turlari paydo bo‘la boshladi.

Kiberjinoyatlarning ko‘payishi davlatlarni BMT atrofida hamkorlikda o‘zaro xalqaro axborot xavfsizligini takomillashtirish va rivojlantirishga undadi. Albatta, bu og‘ir va mashaqqatli jarayonlarda rivojlangan mamlakatlar faol ishtirok etdi, ular bu sohada o‘zlarining resurslari va mablag‘larini ayamadi.

So‘nggi o‘n yillikda jahonda xalqaro xavfsizlik tizimi shakllanib, u o‘z ichiga jahondagi aksariyat davlatlarni qamrab oldi. Hozirgi davrga kelib milliy davlatlar terrorizm, ekstremizm, kiberterrorizm, kiberjinoyatchilik, kiberhujumlarga qarshi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda kurash tajribasi va usullarini egalladi.

Yapon olimlari bo‘lmish professor Yu.Xayashi va I.Masuda tomonidan kashf etilgan axborot jamiyati konsepsiyasi avvalo iqtisodiy rivojlanish vazifalarini bajarish uchun ishlab chiqilgan edi. Shuning uchun ham u ancha cheklangan, ko‘proq amaliyotga qaratilgan tavsiflarga ega bo‘ldi. Lekin XX asrning 60-yillarida postindustrial jamiyat g‘oyasini amerikalik olim Daniel Bell ishlab

---

[7] Крутских А.В. Информационный вызов безопасности на рубеже XXI века // Международная жизнь. 1999, №2. –С.48.

[8] Информационные вызовы национальной и международной безопасности / Под ред. А.В. Федорова, В.Н. Цыгичко. –М.: ПИР-Центр, 2001. –С.193.

[9] Конвенция об обеспечении международной информационной безопасности. [Elektron manba]: https://pircenter.org/wp-content/uploads/2022/10/Конвенция-об-обеспечении-международной-информационной-безопасности-концепция-РФ.pdf.

[10] Резолюция ООН от 5 декабря 2018 г. A/RES/73/27 «Достижения в сфере информатизации и телекоммуникаций в контексте международной безопасности». [Elektron manba]: https://www.un.org/ga/search/view_ doc.asp? symbol=A/RES/73/27 (Дата обращения: 16.11.2019).

chiqqan bo‘lsa[11], 70-yillarga kelib yangi paydo bo‘lgan ikkita – axborot jamiyati va postindustrial jamiyatni uyg‘unlashtirish, bir-biriga qo‘shish konvergensiyalash jarayonlari boshlandi[12].

YuNESKOning ma’ruzasiga ko‘ra, “axborot jamiyati” tushunchasi texnologiyalar yutuqlariga asoslandi[13]. Albatta, axborot jamiyati va axborot inqilobi noxush siyosiy oqibatlarni keltirib chiqardi: “axborot inqilobi nafaqat sivilizatsiyalar jarayonlarini tezlashtirmoqda, balki yangidan yangi milliy, mintaqaviy va global tahdidlarni ko‘paytirmoqda”[14]. XXI asr boshlariga kelib axborot xavfsizligiga tahdidlardan himoyalanish quyidagilarda ifodalandi:

- axborot resurslariga kirishga (kirishlarning bloklanishi);
- konfidensiallik (axborotga huquqsiz va ruxsatsiz kirish);
- yaxlitlikni buzish (axborotlarni buzib ko‘rsatish);

Shuningdek, axborot xavfsizligiga tahdidning yana quyidagi turlari vujudga keldi:

- “metatexnologiya”larning (ya’ni, turli gadjetlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan iste’molchilar haqida axborotlar yig‘ish, ular ustidan nazorat olib borish) paydo bo‘lishi va tarqalishi;
- “elektron-raqamli uzilishlar”, ya’ni AKTga nisbatan davlat ichida va xalqaro darajada chegaralanmagan holda kirish huquqiga ega bo‘lgan, elitaning paydo bo‘lishi. Buning natijasida alohida olingan odamlar, ijtimoiy guruhlar va davlat fikrlari hamda qarashlarini manipulyatsiya qilish imkoniyatlari yildan yilga oshib bormoqda;
- kompyuter militarizatsiyasi, axborot terrorizmi va jinoyatchiligi, ya’ni AKTning ulkan salohiyatidan harbiy-siyosiy ustunlikka erishish, kuchga asoslangan qarama-qarshilik va shantaj, inqirozlar, konfliktlar, harbiy harakatlar taktikalari va strategiyalari haqidagi tasavvurlarni o‘zgartirish, harbiy texnologiyalarni bir-biriga yaqinlashtirish hamda qo‘shish vositasida qurollanish poygasining yangi yo‘nalishlarini tashkil etish.

Axborot tahdidlarining asosiy maqsadlari – bu axborot resurslari – axborot infratuzilmalari, shuningdek, axborotlar va axborot oqimlari[15] (masalan, hujjatlar to‘plamlari, ma’lumotlar banki va bazasi, arxivlar, kutubxonalar, muzeylar fondlari boshqa axborot saqlovchi qurilmalar) kabilarga qarshi qaratiladi.

Bu tahdidlar, bir tomondan, ba’zi davlatlar va siyosiy kuchlarning siyosiy manfaatlari asosida, ikkinchi tomondan, mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatning mustaqil, demokratik subyekti sifatida o‘z eshiklarini dunyo uchun keng ochishi

---

[11] Bell D. The Coming of Post-industrial Society. A Venture in Social Forcasting. -N.Y., Basic Books, Inc., 1973.

[12] Классические зарубежные концепции информационного общества. [Elektron manba]: https://studref.com/416484/politologiya/ klassicheskie_zarubezhnye_kontseptsii_informatsionnogo_obschestva.

[13] К обществам знания. Всемирный доклад ЮНЕСКО. – Париж: Издательство ЮНЕСКО, 2005. –С. 19.

[14] O`sha joyda.

[15] Соглашение между правительствами государств-членов Шанхайской организации сотрудничества осотрудничестве в области обеспечения международной информационной безопасности. [Elektron manba]: http://docs.Pravo . ru/document/view/20364925/19329178/.

davrimizning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan bo‘lgan globallashuv jarayonining ayrim salbiy ta’sirlari ostida kuchayib bormoqda.

Dissertatsiyaning “**Rivojlangan davlatlarda axborot xavfsizligi siyosatining takomillashish jarayoni**” deb nomlangan ikkinchi bobida AQSh davlat axborot xavfsizligi siyosatining takomillashish jarayoni, Yevropa Ittifoqida axborot xavfsizligi siyosati va uni amalga oshirish shakli hamda Xitoyda axborot xavfsizligi sohasida davlat siyosati evolyutsiyasi va rivojlanishi tadqiq etilgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab AQShda axborot xavfsizligi sohasida tub burilish davri boshlandi. 1958-yilda AQSh Mudofaa vazirligining direktivasi bilan Istiqbolli tadqiqotlar va ishlanmalar Agentligi (ARPA) tashkil etildi. U 1972-yilda qaytadan tashkil etilib, Istiqbolli mudofaa tadqiqotlari va ishlanmalari Agentligi (DARPA) deb nomlandi[16].

1980-yillardan boshlab kompyuter tarmoqlari va tizimlaridagi axborotlar xavfsizligiga nisbatan yondashuvlar jiddiy ravishda o‘zgara boshladi. 1984-yilda “Telekommunikatsiyalar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari milliy siyosati” me’yoriy hujjati qabul qilindi. AQShda kiberterrorizm, kiberjinoyatchilik va davlatlarning AKTdan dushmanlik maqsadlarida foydalanayotganligi kabilar eng katta muammo sifatida e’lon qilindi. Bu sohaga qarshi kurash siyosati 1987-yilda qabul qilingan “Kompyuter xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunda rasmiylashdi. AQSh prezidentining 2001-yil 16-oktyabrdagi (PATRIOT ACT) buyrug‘i hamda 2003-yilda “Kibermaydonni himoya qilishning milliy strategiyasi” to‘g‘risidagi buyrug‘i e’lon qilindi[17].

AQShda kiberxavfsizlik tizimini rivojlantirishning navbatdagi bosqichi 2008-yilda boshlanib, bu davrdan boshlab “Kiberxavfsizlikning umummilliy tashabbusi” hujjati hayotga joriy etila boshlandi. 2009-yilga kelib AQSh prezidenti Barak Obama kibermaydon xavfsizligini ta’minlashni eng muhim davlat vazifasi sifatida e’lon qildi. Shu yili “Kibermaydondagi siyosat obzori” rasmiy hujjati ishlab chiqildi[18]. J.Bush prezidentlik davriga kelib “Kiberxavfsizlikning umummilliy tashabbusi” nomli hujjat qabul qilindi. Prezident B.Obama 2009-yil may oyida “Kibersiyosat obzori”ni (Cyberspace Policy Reviev) e’lon qilib, unda kiberxavfsizlik sohasidagi beshta ustuvor yo‘nalishlarni ko‘rsatib berdi. Ularning ichida eng muhimlari sifatida J.Bush boshlab bergan Amerika axborot-kommunikatsiya tarmoqlarida xavfsizlikni ta’minlashning yangi umumilliy strategiyasini ishlab chiqish ilgari surildi. 2012-yilga kelib AQShda “Axborotlar himoyasi va almashinuvi milliy strategiyasi” qabul qilindi. Mazkur hujjat

---

[16] Department of Defence Directive 5105.15: Department of Defence Advanced Research Projects Agency [issued on 07.02.1958] // ARPA. [Official website] Систем. Требования: Adobe Acrobat Reader. [Elektron manba]: http://www.darpa.mil/Docs/DARP_Original_Directive_1958_200807180942212.pdf. (Дата обращения: 01.05.2014).

[17] National Security Strategy 2010. // National Security Strategy Archive. [Web-source] Систем.требования: AdobecrobatReader. [Elektron manba]: http://nssarchive.us/NSSR/2002.pdf (Дата обращения: 01.12.2014).

[18] Cyberspace Policy Review: Assuring a Trusted and Resilient Information and Communications Infrastructure [issued on 29.05.2009] // The White House. [Official website]. [Elektron manba]: http://www.Whitehouse. gov/assets/documents/ yberspace_Policy_Review_ final.pdf (Дата обращения: 01.05.2014).

AQShning axborot xavfsizligiga doir siyosatining uchta asosiy prinsipini belgilab berdi: axborot milliy boylik sifatida; umumiy xavf-xatarlar taqsimlanishni zarurat qilib qo‘yganligi tufayli axborotlar almashinuvi va himoyalanishi; axborotlar oqimi kuchayishi sababli eng yaxshi qarorlarni qabul qilish.

2015-yil 24-aprelda AQSh Mudofaa vazirligi mamlakat kiberxavfsizligining yangilangan strategiyasini qabul qildi. Unga binoan har qanday kiberhujumlarga qarshi zarbalar berish, AQShni har qanday dushman yoki jinoyatchidan iloji boricha mukammal darajada himoya qilish vazifasi qo‘yildi.

2018-yil 19-yanvarda AQSh Mudofaa vazirligi “Milliy Mudofaa strategiyasi”ning yangilangan variantini e’lon qildi. Shu yilning kuzida Prezident D.Tramp “Kiberxavfsizlik milliy strategiyasi” hujjatini imzoladi. 2021-yilda Jo Bayden Prezident etib saylanganidan keyin kiberxavfsizlik sohasiga e’tibor yanada kuchaydi. U 2021-yil may oyida “Kiberxavfsizlik va federal hukumat tarmoqlarini himoyalashni kuchaytirish to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Mazkur farmonga muvofiq ravishda mamlakatdagi hokimiyat organlari uchun kiberxavfsizlik sohasidagi hujumlarga qarshi kurashishga oid maxsus standartlashgan yo‘riqnoma ishlab chiqildi, unda qator tavsiyalar joy oldi. Shuningdek, unda xususiy sektorga axborot xavfsizligini ta’minlashga oid qator tavsiyalar berildi[19].

AQSh axborot xavfsizligi sohasiga jahondagi mamlakatlar ichida eng ko‘p sarmoyalar sarfladi. Bu holat uning siyosiy va harbiy qudratini yanada oshirib, dunyo siyosatini belgilaydigan davlat sifatida yashash imkoniyatlarini yanada oshirdi.

XX asrning 90-yillarida ham milliy, ham YI darajalarida telekommunikatsiya va axborotlarni himoyalashga oid qator huquqiy aktlar qabul qilindi. Ularning ichida eng muhimlari – bu Yevropa Komissiyasi tomonidan 2001-yilda e’lon qilingan “Tarmoq va axborot xavfsizligi: Yevropa siyosatiga yondashuvlar uchun takliflar” Xabarnomasi bo‘lib, u YI hayotida muhim o‘zgarishlarni boshlab berdi. Shu bilan birga, 2002-yil 28-yanvarda YI kengashi “Tarmoqlar va axborot xavfsizligi sohasida umumiy yondashuvlar va maxsus choralar”, 2003-yil 18-fevralda “Tarmoqlar va axborot xavfsizligi madaniyatiga nisbatan Yevropa yondashuvi” to‘g‘risidagi qarorlarini qabul qildi.

2004-yil 10-martda tarmoqlar va axborot xavfsizligiga tahdidlarga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish maqsadida “Tarmoqlar va axborot xavfsizligi Yevropa agentligi” (European Netvork and Information Security Agency — ENISA) tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi “YI hamjamiyati ichida tarmoqlar va axborot xavfsizligini yuqori va samarali darajada ta’minlash va fuqarolar, foydalanuvchilar, ishlab chiqaruvchilar hamda davlat sektori foydasiga tarmoqlar va axborot xavfsizligi madaniyatini rivojlantirish” kabilardan iborat edi.

2010-yillardan boshlab YIda kiberjinoyatlar yanada kuchaydi, axborot tizimlariga yangi turdagi hujumlar yoki fishing (talafot ko‘radigan odam bank hisob raqamiga kirishni ta’minlash maqsadida parollarni so‘rash uchun bank

[19] Байден подписал указ о повышении уровня кибербезопасности в стране. 13 мая 2021 г. [Elektron manba]: https://www.interfax.ru/world/765723.

saytlarini qalbakilashtirish) kabilar paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, tovlamachilik va nolegal kontentni tarqatish (bolalarni jinsiy zo‘ravonlikka majburlash yoki Internetda kuch ishlatishni targ‘ib qilishga oid materiallar), kompyuterdan jinoyatni sodir etishda foydalanish kabi an’anaviy bo‘lib qolgan jinoyatlar ham kuchaydi[20].

Stokgolm dasturida (The Stockholm Programme) YIning 2010–2014-yillardagi asosiy e’tibori axborot xavfsizligini ta’minlash va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash masalalariga qaratilishi belgilab qo‘yildi.

2020-yil 24-iyulda Yevropa Komissiyasi yangi Ittifoq xavfsizligi strategiyasini qabul qildi. Unda asosan muhim axborot xavfsizligi infratuzilmalarini kiberjinoyatlardan himoya qilishga alohida urg‘u berilib, gibrid tahdidlar va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish vazifalari belgilandi. Ittifoq xavfsizligi strategiyasi so‘nggi 20 yillik strategiyalarni yangiladi.

YIning raqamli rivojlanishining muhim yo‘nalishini muvofiqlashtiruvchi asosiy hujjat bo‘lgan Yevropa raqamli strategiyasi (Shaping Europe’s digital future) 2020-yilning fevral oyida qabul qilindi. Bu strategiyada 2024-yilgacha Yevropa Komissiyasining raqamlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi[21].

Xulosa qilib aytganda, YIning axborot va kiberxavfsizligi AQSh va Xitoy bilan raqobat kurashlarida rivojlanib bormoqda, bu sohada jahonda lider bo‘lish uchun kurashmoqda.

Xitoyning innovatsion rivojlanish davlat strategik dasturida kibermakonni kengaytirish va uning xavfsizligini mustahkamlashga oid muhim vazifalar mujassamlashgan. Xitoy uchun axborot xavfsizligi avvalambor bu innovatsiyalar, shu tufayli ham bu yondashuv kiberxavfsizlikni ta’minlashning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Xitoyda Internet dastlab 1987-yil 20-sentyabrda Pekin fizika va yuqori energiyalar instituti professori Syan Tyanbayning CANET (Chinese Academic Netvork) dasturi doirasida Xitoydan birinchi elektron xatni jo‘natishi munosabati bilan o‘z davrini boshladi.

1990-yil oktyabrda Xitoy domen zonasi – “.cn” ro‘yxatga olindi, shu yilning o‘zida bu domen zonasida elektron pochta sayti rasmiy ravishda ochildi[22]. 1994-yilda birinchi marta Internetga Sprint liniyasiga 64 bit/s orqali chiqishga erishildi, bu orqali Xitoy xalqaro hamjamiyat tomonidan rasmiy ravishda Internetning barcha funksiyalariga ega bo‘lgan mamlakat sifatida e’tirof etildi.

---

[20] Cybercrime И European Commission. Home Affairs, http://ec.europa.eu/home-affairs/policies/crime/crime _cybercrime_en.htm/. 2 Communication from the Commission to the European Parliament, the Council and the Com- mittee of the Regions of 22 May 2007 «Towards a general policy on the fight against cyber crime». Brussels, 22.5.2007.COM(2007) 267 final.

[21] Зиновьева Е., Булва В. Цифровой суверенитет Европейского Союза. 27.10.2020.// Современная Европа, 2021, -№ 2. -С. 44-45.

[22] Интернет в Китае. Справка. РИА Новости. 2010, 13 января. [Elektron manba]: http://ria.ru/world/20100113/204310750.html.

Milliy qonunchilikka muvofiq, Xitoyda ikki bosqichli Internet ishlashi lozim: birinchi darajada – foydalanuvchilar global tarmoqlarga faqat magistral aloqalar tugunlari vositasida kirishi mumkin bo‘lgan magistral tarmoqlardan iborat bo‘ldi[23].

Mamlakatda “Oltin qalqon” loyihasi (norasmiy nomi – Buyuk Xitoy fayrvoli) (Xitoy buyuk devoriga o‘xshatma) mamlakat internet tarmoqlariga o‘rnatilgan murakkab filtrlash tizimi doirasida tashkil etilgan edi. Bu loyiha doirasida internet-kanallardagi serverlar tizimi provayderlar va xalqaro tarmoqlarda uzatiladigan axborotlarni filtrlash qobiliyatiga ega edi.

2001-yilda Xitoy Internet tarmoqlaridan foydalanuvchilar jamiyati tashkil etildi, u Internetni rivojlantirishga xizmat qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa ham, lekin aslida u hukumat tomonidan global tarmoq ustidan nazorat qilish sohasidagi hukumat qarorlarini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan edi.

Xitoyda 2008-yildan boshlab yangi qabul qilingan qoidalarga binoan radioeshittirish yoki onlayn translyatsiya (video) olib borish uchun litsenziya olishga faqat hukumatga qarashli yoki davlat tomonidan nazorat qilinadigan kompaniyalarga ruxsat berildi. 2009-yilda domen nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun qonun kuchga kirib, unga binoan “.cn” zonasida domen nomini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun yozma ariza berish, unga ilova tariqasida barcha shaxsiy ma’lumotlar, korxonaning tijorat faoliyatiga berilgan litsenziyani taqdim etish tartibi o‘rnatildi.

Xitoyning axborot xavfsizligi (yoki kiberxavfsizligi) strategiyasi (“Axborotlashishni rivojlantirishni jadallik bilan amalga oshirish va axborot xavfsizligini amalda ta’minlash haqida Davlat kengashining fikri”) 2012-yilda qabul qilindi[24]. 2016-yilda Xitoy kommunistik partiyasi markaziy qo‘mitasi “Innovatsion rivojlanish milliy strategiyasi rejasi”ni e’lon qildi. Unda tarmoqlar xavfsizligi texnologiyalarini tadqiq etish va jadallashtirish orqali Xitoyda iqtisodiy o‘zgarishlarni, modernizatsiya va milliy tarmoqlar xavfsizligini qo‘llab-quvvatlashni himoya qilish ta’minlanadi[25].

2016-yilda Xitoy armiyasida rasmiy ravishda kiberqo‘shin tuzildi. Bu qo‘shinning asosiy vazifasi internet-maydonda harbiy harakatlar olib borish, deb belgilandi. Mamlakat lideri Si Szinpin bayonotiga binoan, qo‘shin tuzilmasi formatini o‘zgartirishdan maqsad – Xitoy armiyasini mintaqaviy mudofaa armiyasidan barcha operatsiyalarni olib borishga qodir qo‘shinga aylantirishdir.

2021-yil 30-iyulda Xitoyda Kiberxavfsizlik milliy markazi – KXMM (National Cybersecurity Center) tashkil etildi. Uxanda tashkil etilgan KXMM

---

[23] Magistral tugunlar (backbone networks) – yuqori tezlikdagi magistral kanallarga qo‘shilib, taqsimlangan tarmoqlar bazaviy tugunlarini ifodalash uchun ishlatiladigan umumiy atama. Korxona miqyosi segmenti, shuningdek, klasterlar va alohida ishlayotgan stansiyalar magistral tarmoqlarga ko‘priklar, marshrutizatorlar va konsentratorlar vositasida ulanadi.

[24] Мнение Государственного совета о форсированном продвижении развития информатизации и о реальном обеспечении информационной безопасности). Официальный сайт Постоянного комитета Всекитайского собрания народных представителей КНР. 17.07.2012. [Elektron manba]: http://www.gov.cn/zwgk/2012-07/17/ content_ 2184979.htm.

[25] *Qarang:* План национальной стратегии инновационного развития). [Elektron manba]: http://www. gov.cn/gongbao/ content/2016 /content_5076961.htm.

kampusi maydoni 40 km.kv. bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida maktab, tadqiqotlar laboratoriyasi, inkubator, shu bilan birga, iste’dod egalarini tayyorlash markazi sifatida xizmat qiladi[26].

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Xitoy davlati internet-texnologiyalariga yirik investitsiyalar ajratish vositasida, xususan, internetda OAVni rivojlantirishni rag‘batlantirish, axborot kanallarini kengaytirish, xorijiy OAVni nisbatan kamaytirish maqsadlarida axborot va kiberxavfsizlikni mustahkamlashni davlat siyosati darajasida amalga oshirmoqda. Lekin AKTlar rivojlanib va takomillashib borgani sari axborot xavfsizligi sohasida yangidan yangi muammolar paydo bo‘lmoqda. Shu bilan birga, axborot xavfsizligiga oid Xitoy tajribasi o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda bu sohadagi islohotlar uchun nihoyatda muhimdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda axborot xavfsizligi siyosatining rivojlanishi va istiqbollari**” deb nomlanadi. Mazkur bobda O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosati huquqiy asoslarining shakllanishi va rivojlanishi, kibertahdidlar va ularga qarshi kurash choralari tadqiq etilgan.

1999-yilning 20-avgustida O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 2002-yil 12-dekabrda “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Unda “...urushni va zo‘ravonlikni, shafqatsizlikni targ‘ib qilishni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovat uyg‘otishga qaratilgan terrorizm va diniy ekstremizm g‘oyalarini yoyishni o‘z ichiga olgan axborot tarqatilishiga qarshi harakatlar qilish[27] qoidasi belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunida “shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash”, “axborot resurslarining tarqalib ketishi, o‘g‘irlanishi, yo‘qotilishi, buzib talqin etilishi, to‘sib qo‘yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish” kabi axborot xavfsizligini ta’minlashga oid huquqiy asoslar qabul qilindi.

Axborot xavfsizligi masalalarini muvofiqlashtirish aks etgan yana bir me’yoriy hujjat – bu 2004-yil 29-aprelda qabul qilingan “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bo‘ldi[28]. 2006-yilning 4-aprelida O‘zbekiston Respublikasining “Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Mamlakatda axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida 2014-yil 5-mayda qabul qilingan O‘zbekiston

[26] Ларина Е., Овчинский В. Китай готовится стать кибердержавойи создаёт для этого Центр талантов и инноваций в области кибербезопасности. 2 августа 2021 г. [Elektron manba]: https://zavtra.ru/blogs/kitaj_gotovitsya _stat_ kiberderzhavoj.

[27] Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги 439-II-сонли “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни// Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 1-сон, 2-модда; 2015 й., 52-сон, 645-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон.

[28] Ўзбекистон Республикасининг “Электрон ҳужжат айланиши тўғрисида”ги қонуни. 2004 йил 29 апрель//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2004 йил, 20-сон, 230-модда.

Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni muhim ahamiyat kasb etdi[29].

2019-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respsublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 28-moddasida “Subyektning roziligisiz yoki boshqa qonuniy asos mavjud bo‘lmagani holda shaxsga doir ma’lumotlarni oshkor etish va tarqatishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida mulkdor va (yoki) operator yoki shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan boshqa shaxs tomonidan rioya etilishi majburiy bo‘lgan talab shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligidir”[30] qoidasi mustahkamlab qo‘yildi.

O‘zbekistonda axborot xavfsizligini ta’minlashga oid tub o‘zgarishlar va rivojlanishlar Prezident Sh.M.Mirziyoyev davlat rahbari etib saylanganidan keyin boshlandi. O‘zbekistonning dunyoga ochilishi, rivojlangan davlatlar bilan har tomonlama hamkorlik munosabatlarining yo‘lga qo‘yilishi natijasida mamlakatda AKT va “elektron hukumat”ni rivojlantirish avj oldi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo‘lidan borish imkonini beradi”[31].

Bundan tashqari, 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini bajarish yuzasidan hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda axborot va jamoat xavfsizligi, shuningdek, huquq-tartibotni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish, “Xavfsiz shahar” yagona apparat-dasturiy kompleksini yaratish loyihasining o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida 2017-yil 17-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashga ko‘maklashish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[32].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda qabul qilgan PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida “xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya

---

[29] Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 5 майда қабул қилинган 369-сонли “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида”ги қонуни. [Elektron manba]: https://lex.uz/docs/2381133.

[30] Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги қонуни. 2019 йил 2 июль//Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

[31] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. –Б. 24.

[32] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 17 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигининг ахборот хавфсизлиги ва жамоат тартибини таъминлашга кўмаклашиш маркази фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 18.10.2017 й., 09/17/838/0130-сон, 01.05.2018 й., 09/18/318/1108-сон; 27.03.2019 й., 09/19/254/2839-сон.

qilish uchun elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, shuningdek, mavjud standartlar va elektron tijorat qoidalarini takomillashtirish va yangilash" vazifalari qo‘yildi[33].

2022-yilning 15-aprelida O‘zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to‘g‘risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga binoan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilandi. Mazkur qonun kiberxavfsizlik subyektlarining huquq va majburiyatlari, ularning kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan majburiy tartibda yoki kiberxavfsizlik subyektlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshirilishi kabi tartibot o‘rnatildi. Mazkur qonunning qabul qilinishi, dastavval, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda kiberxavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solish, huquqiy, tashkiliy, ilmiy-texnik va me'yoriy uslubiy ta'minot tizimini takomillashtirish, axborot tizimlari va resurslarining yaxlitligini ta'minlash jarayonini huquqiy jihatlardan muvofiqlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to‘g‘risida"gi Qonuni, Prezident farmonlarining qabul qilinishi mazkur strategiyani kibermaydonda amalda qo‘llash sohasidagi dastlabki qadamlardan biri bo‘ldi. Mamlakat qisqa davr ichida axborot xavfsizligi sohasida jahondagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirishga harakat qila boshladi. Albatta, bu sohadagi rivojlanish Yangi O‘zbekiston poydevorini shakllantirish omillaridan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida axborot texnologiyalarining murakkablashib, takomillashib borishiga monand ravishda ularga qarshi tahdidlar ham ko‘payib va kuchayib bormoqda.

O‘zbekistonda ham so‘nggi uch yilda kiberjinoyatlar 8,3 baravarga ko‘payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foizini tashkil etmoqda. Xususan, noqonuniy bank-moliya operatsiyalari orqali o‘zgalarning plastik kartadagi mablag‘larini o‘zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o‘yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko‘payib bormoqda[34].

Kiberhujumlar uchun muayyan chegaraviy to‘siqlar mavjud emasligi, Internet tarmoqlarining globalligi tufayli O‘zbekiston davlati va jamiyatidagi kibermaydonlarga nisbatan hujumlar ham yildan yilga ko‘payib bormoqda. Mazkur masalaga oid eng ko‘p uchraydigan kiberhujumlar va tahdidlar turlari hamda tavsiflari haqida quyidagi tahlillar shakllantirildi. Ularning ichida eng ko‘p uchraydigani quyidagilardir:

Shifratorlar; bloklovchi ekranlar; tarmoq chuvalchang-qurtlari (chervi); moliyaviy fishing hujumlar; DoS/DdoS – hujumlar; botnetlar; kiber-stalking;

---

[33] Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-6079-сонли "Рақамли Ўзбекистон - 2030" стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. 2020 йил 5 октябрь//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.10.2020 й., 06/20/6079/1349-сон; 02.04.2021 й., 06/21/6198/0269-сон.

[34] Виртуал оламдаги глобал таҳдид. [Elektron manba]: https://uza.uz/uz/posts/virtual-olamdagi-global-tahdid_350549.

kiberterrorizm; kiberfiribgarlik; bulling (ing. “do‘q qilish”, “zo‘ravonlik qilish”); grifing[35].

Shu bilan birga, O‘zbekistonda quyidagi kiberjinoyatchilik turlari keng tarqaldi: virusli dasturiy ta’minotni tarqatish; foydalanuvchining maxfiy ma’lumotlarini o‘g‘irlash; boshqa odamlarning intellektual faoliyat mahsulotlarini o‘g‘irlash; ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning akkauntlarini buzish; yolg‘on ma’lumot tarqatish, tuhmat qilish; millatlararo nizo yoki dinlararo adovatni qo‘zg‘atish; bank plastik kartalari (karta rekvizitlari) bilan noqonuniy operatsiyalar; qimmatli qog‘ozlar bozoridagi Internet-firibgarlik; Internetdagi moliyaviy piramidalar; mobil aloqa bilan bog‘liq jinoyatlar; elektron tijorat sohasidagi boshqa jinoyatlar[36].

O‘zbekistonda kiberxavfsizlik sohasiga tegishli 17 ta qonun hujjati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 ta farmon va qarori, Vazirlar Mahkamasining 14 ta qarori, shuningdek, tegishli normalar va ko‘plab idoralararo me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Global kiberxavfsizlik darajasi bo‘yicha 194 mamlakatni o‘z ichiga olgan 2020-yil reytingida O‘zbekiston 70-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston mazkur yo‘nalishlar ichida huquqiy choralar bo‘yicha 19.27 ball, hamkorlik bo‘yicha 13.56 ball, salohiyatni rivojlantirishda 15.68 ball, tashkiliy choralar bo‘yicha 10.05 ball hamda texnik choralar bo‘yicha 12.56 ballni qo‘lga kiritgan. Shu tariqa mamlakat jami 71.11 ball olgan. Markaziy Osiyo davlatlari orasida kiberxavfsizlik bo‘yicha Qozog‘iston 31-o‘rin, Qirg‘iziston 92-o‘rin, Tojikiston 138-o‘rin, Turkmaniston 144-o‘rinni egallagan[37].

Jamiyatni tashvishga soladigan holat – bu axborot texnologiyalari yordamida huquqbuzarlik va jinoyatga qo‘l urgan shaxslar orasida yoshlar ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Respublikamizda virtual olamdagi qonunbuzilishlarning aksariyati 16-23 yosh oralig‘idagi o‘smir-yoshlar tomonidan sodir qilinmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, kiberxavfsizlikni ta’minlash masalasi bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[38].

O‘zbekistonda jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim omili – davlat tomonidan axborot xavfsizligini ta’minlashga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish miqyosi ham kengaydi. Shu bilan bir vaqtda, 2020–2022-yillarda axborot-kommunikatsiya vositalari va axborot xavfsizligini ta’minlashga oid texnologiyalarning takomillashib, kengayib va rivojlanib borishiga mutanosib ravishda tashqi kiberhujumlar ham oshib bordi.

---

[35] Бўронов Л. Кибержиноятчиликка қарши курашишда интернет-маданиятнинг аҳамияти. [Elektron manba]: https://ictnews.uz/ uz/15/05/2018/cybercrime/.

[36] Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар ва улардан ҳимояланиш усуллари.15 март 2021 й. [Elektron manba]: http://naveconomy.uz/asosiy/yangiliklar/155-ahborot-tehnologiyalari-soasidagi-zhinoyatlar-va-ulardan-imoyalanish-usullari.html.

[37] Ўзбекистоннинг Глобал киберхавфсизлик рейтингидаги ўрни эълон қилинди. [Elektron manba]: https://bugun.uz /2021/10/ 12/ozbekistonning-global-kiberxavfsizlik-reytingidagi-orni-elon-qilindi/.

[38] Кибермаконда содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш: муаммолар ва ечимлар. [Elektron manba]: https://iiv.uz/oz/ news/kiber-makonda-sodir-etilayotgan-jinoyatlarga-qarshi-kurashish-muammolar-va-yechimlar.

2022-yilda har kuni o‘rtacha 67 ta dastur-yulg‘ichlarning yangi hujumlari ro‘y berib turdi. Texnikaviy yordam bilan bog‘liq bo‘lgan tovlamachilik hodisalari (fuqarolarga “xorijiy schetlardan pul o‘tkazish”ni taklif qilgan qalloblar) ham ko‘paydi. Bundan ko‘rilgan ziyonlar 347 mln AQSh dollarini tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 137 foizni tashkil etdi[39]. 2022-yilning birinchi yarmida “UZ” domen hududida 83 ta aniqlangan hujumlar ro‘y berdi. Davlat organlarining veb-saytlarida shu yarim yilda 23 ta axborot xavfsizligiga hamla qilindi[40].

2023-yilning birinchi choragida O‘zbekiston internet tarmog‘i “UZ” segmentida 110 mingdan ortiq veb-sayt domenlari ulangan bo‘lib, shulardan 28 mingdan ortig‘i faol domenlar sifatida ishladi. Ularning 14 mingdan ortig‘i xavfsiz, ya’ni SSL sertifikati bilan himoyalangan domenlar hisoblanadi. Milliy kibermakonda zararli tarmoq bilan bog‘liq 1650000 kibertahdidlar ro‘y berganligi aniqlangan. Shundan 2,1 foizi zaifligi mavjud servislar, 13,1 foizi yopiq bo‘lishi kerak bo‘lgan servislar, 7,3 foizi DdoS hujumiga moyil servislar, 26,4 foizi zararli dasturlar, 51,2 foizi ochiq servislardan iborat bo‘lgan. Internet tarmoqlarining milliy segmentida joylashgan davlat va xo‘jalik organlarining rasmiy veb-saytlarida 249 ta hodisa aniqlangan bo‘lib, buning natijasida davlat idoralarining veb-saytlari umumiy hisobda 417285 daqiqa davomida ishdan chiqishga olib kelgan[41]. Bu shundan dalolat beradiki, kibertahdidlar va hujumlar miqdori yildan yilga oshib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyunda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot tuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlanib, unga binoan kiberhujumlarga qarshi kurash shakllari va ularning oldini olish chora-tadbirlari belgilandi[42]. Bu rasmiy hujjatda kiberxavfsizlik sohasida zamonaviy va takomillashgan texnologiyalardan foydalanish va ularni joriy etish masalalarini hal etish ham nazarda tutildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim sohasi – axborot xavfsizligini mustahkamlash va takomillashtirish sohasida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Bunda avvalo, “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasining tashkil etilishi, “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, axborot xavfsizligiga oid texnologiyalarning yangilanishi va takomillashtirilishi natijasida kiberhujumlar hamlasiga nisbatan to‘siqlar qo‘yildi,

---

[39] Кибербезопасность 2022: обеспечение цифровой безопасности/. 30.06.2022 . [Elektron manba]: https://review.uz/post /kiberbezopasnost-2022-obespechenie-cifrovoy-bezopasnosti/.

[40] Статистика проверок, по состоянию на I- полугодие 2022 года. [Elektron manba]: https://csec.uz/ru/.

[41] “Киберхавфсизлик маркази” давлат унитар корхонаси. 2023 йил 1-чорак якунлари. [Elektron manba]: https://csec.uz/upload/iblock/685/2023%20yil%20I%20chorak%20uchun.pdf.

[42] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг муҳим ахборот тузилмаси объектлари киберхавфсизлигини таъминлаш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. 2023 йил 2 июнь. [Elektron manba]: https://lex.uz/ru/docs/6479190.

jamiyat barqarorligi va xavfsizligi ta’minlandi. Shuningdek, axborot xavfsizligining istiqbollarini yanada yaxshilash maqsadida mazkur soha moddiy-texnika bazasining rivojlantirilishi – bu sohaning yanada rivojlanib borayotganining dalilidir.

XULOSA

“Davlat axborot xavfsizligi siyosatida jamiyat barqarorligini ta’minlashning milliy va xorijiy jihatlari” mavzusida olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

Birinchidan, XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida axborot xavfsizligini ta’minlash jahondagi har bir davlat, jamiyat hayotida ijtimoiy-siyosiy barqarorligini saqlashning asosiy omiliga aylandi. “Axboriy xavfsizlik”, “axboriy muhit”, “axborot xavfsizligi”, “axborot jamiyati”, “shaxs axborot xavfsizligi”, “jamiyatning axborot xavfsizligi”, “davlatning axborot xavfsizligi”, “kommunikatsiyaviy siyosat”, “media siyosati” tushunchalari ta’riflari shakllandi.

Ikkinchidan, xalqaro maydonda axborot almashinuvlarining globallashuvi natijasida xalqaro hamjamiyatda axborot oqimlarining xavfli ta’sirlarini kamaytirishning xalqaro mexanizmlarini topishga zarurat tug‘ildi. Shu tufayli axborot xavfsizligining xalqaro-huquqiy asoslari rivojlana boshladi. Jahon axborot maydoniga oid qonunchilik shakllandi.

Uchinchidan, hozirgi davrga kelib dunyo miqyosida eng xavfli axborot tahdidi terrorchilik va ekstremistik tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Internet ijtimoiy tarmoqlarida terrorchi va ekstremistik tashkilotlarning bir necha minglab saytlarida yoshlarni o‘ziga jalb etuvchi, ularning ongini zaharlovchi materiallar, da’vatlar, soxtalashtirilgan diniy materiallar joylashtirilayotgani tashvishlidir.

To‘rtinchidan, XX asrning 60–70-yillaridan boshlab AQShda axborot xavfsizligi sohasida tub burilish davri boshlandi. Mamlakatda AKTning rivojlanishi va takomillashib borishi, kompyuter tarmoqlarini keng joriy etish oqibatida turli kibertahdidlar kuchaydi. Bu esa axborot xavfsizligini mustahkamlash va kuchaytirish vazifalari 1996-yilda qabul qilingan “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi qonunda mujassamlashdi. 2009-yilga kelib “Kibermaydondagi siyosat obzori” ishlab chiqilib, unda nafaqat kiberxavfsizlik sohasida shakllangan tizim tahlili, balki unda AQSh kiberxavfsizligini har tomonlama rivojlantirish va o‘zgartirish rejasi aks etgan edi. “Kibermaydonda harakat qilishning xalqaro strategiyasi”da kibermaydonda amalga oshiriladigan asosiy prinsiplar, AQShning global darajadagi kibersiyosatining ustuvor yo‘nalishlari mujassamlashtirildi.

Beshinchidan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida axborot xavfsizligiga oid davlat siyosati eng mukammal va takomillashgan holda amalga oshirilmoqda. Bu sohadagi davlat siyosatining kuchi-qudrati uning avvalambor oddiy fuqarolar manfaatlari asosida qurilganligi bilan xarakterlanadi. Yevropa Ittifoqi axborot xavfsizligi sohasidagi

mavaffaqiyatlarning asosiy sababi – bu demokratik prinsiplarga amal qilishi bilan belgilanadi.

Oltinchidan, Xitoy davlatida Xitoy AKTning salmoqli rolini ifoda etadigan asosiy hujjat – bu Xitoy milliy xavfsizligining keng qamrovli konsepsiyasi hisoblanadi. Unda Xitoy jamiyati, iqtisodiy va harbiy xavfsizligini ta'minlashda, global axborot makonining eng kam nazorat qilinadigan segmenti sifatida Internetga katta e'tibor qaratildi. Xitoyda "Oltin qalqon" loyihasi – Buyuk Xitoy fayrvoli mamlakat internet tarmoqlariga o'rnatilgan murakkab filtrlash tizimi doirasida tashkil etildi. Bu loyiha doirasida internet-kanallardagi serverlar tizimi provayderlar va xalqaro tarmoqlarda uzatiladigan axborotlarni filtrlash qobiliyatiga ega bo'ldi. Natijada, Xitoy axborot xavfsizligi sohasida jahondagi eng kuchli davlatlardan biriga aylandi.

Yettinchidan, O'zbekiston davlati 2017-yildan boshlab kuchayib borayotgan kibertahdidlar, ularga qarshi axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida xalqaro standartlar va milliy manfaatlardan kelib chiqib bir qator qonunlar va boshqa turli me'yoriy hujjatlar shakllantirdi. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillari asosida milliy axborot tizimini yaratishga qaratildi.

Shu bilan birga, quyidagi bir qator taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- jamiyat barqarorligini ta'minlashda, davlat axborot xavfsizligiga tahdidlarning oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda xorijiy tajribalardan foydalangan holda, axborot xavfsizligini ta'minlash Konsepsiyasini ishlab chiqishni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taklif sifatida kiritish;
- Respublikaning barcha qishloq, tuman, shahar va viloyatlari media makonida axborot xavfsizligini ta'minlash hamda kiberxurujlarga qarshi kurashishda davlat va xususiy sherikchilik asosida yagona UZ domenni yanada transformatsiyalashtirib, axborot hujumlariga qarshi kurashishda zamonaviy texnologiyalar va malakali kadrlar bilan ta'minlash;
- axborot makonidan o'zlarining buzg'unchi siyosiy g'oyalari, shuningdek, ekstremistik radikal mafkuralarini yoyishda foydalanayotgan guruh va tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan "kiber" va "gibrid" axborot xurujlarining inson ongiga qilinayotgan g'oyaviy ta'sirlariga qarshi kurashish maqsadida "Intellektual kiberhujumlarga qarshi kurash" guruhlari tashkil etish, ularni zaruriy AKT va boshqa texnologiya vositalari bilan ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tarkibidagi tarbiyalanuvchi, o'quvchi va talabalarni hamda yoshlarning uyushmagan qatlamlarini axborot xurujlarining ta'siriga tushib qolishdan saqlash, axborot hujumlariga aks-sado berish, ular tarqatayotgan g'oyalarga qarshi mafkuraviy zarbalar berish maqsadida "Kiberxavfsizlik" nodavlat jamoatchilik markazlarini tashkil etish, ijtimoiy profilaktika ishlarini har bir Oila, mahalla hamda mas'ul mutasaddi tashkilotlar kesimida, birgalikda amalga oshirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

- yosh avlodni axborot xurujlari va media siyosiy tahdidlardan saqlash hamda ularda ushbu tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning amalda sinalgan tajribalarining samarali tomonlarini o‘zlashtirish orqali jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash;

- O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi, OAV, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi, jamoat birlashmalari va NNTlar hamda tegishli idoralar bilan hamkorlikda yoshlarning axborot xavfsizligiga oid dunyoqarashini shakllantirishda ularning yosh doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy-ommabop, qiziqarli multimedia roliklar, risola va o‘quv qo‘llanmalar, “Axborot xavfsizligi” darsligini yaratish, nashr etish;

- O‘zbekistondagi mavjud oliy ta’lim muassasalarida o‘tilayotgan “Falsafa”, “Sotsiologiya”, “Siyosatshunoslik” fanlari, “Milliy g‘oya va O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi” kurslarida, qolaversa, umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Tarbiya”, “Davlat va huquq asoslari” fanlari o‘quv dasturlari va o‘quv qo‘llanmalariga axborot xavfsizligi va “Kiberxavfsizlik” mavzularini kiritish.

- o‘smirlar va bolalar ongini radikal g‘oyalar bilan zararlanishi oldini olish, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunda nazarda tutilgan bolalar psixologiyasiga zarar yetkazuvchi yot va buzg‘unchi g‘oyalarning tarqalishining oldini olishga oid davlat dasturini ishlab chiqish va uni parlamentda qabul qilishga tavsiya etish.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АЛИЕВ ОЛИМБЕК АЙБЕКОВИЧ

НАЦИОНАЛЬНЫЕ И ЗАРУБЕЖНЫЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

23.00.02 – Политические институты, процессы и технологии

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по политическим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по политическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2020.4.PhD/Ss237.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.namdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Киргизбоев Мукимжон** доктор политических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Жураев Сайфиддин Ахматович** доктор политических наук, профессор
	Юлдашев Анвар Эргашевич доктор исторических наук, профессор
Ведущая организация:	**Узбекский государственный университет мировых языков**

Защита диссертации состоится «14» 2024 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.04.2022.Ss.27.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения (Адрес: 100060, город Ташкент, улица Амира Темура, дом 20, Тел.: (71) 2333424; e-mail: info@tsuos.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована по № ____). Адрес: 100060, город Ташкент, улица Амира Темура, дом 20. (99871) 233-45-21.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 г.
(протокол реестра рассылки № ___ от «___» _____2024 г.)

Д.Б.Сайфуллаев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

Д.И.Мадаминова
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, доцент

Э.С.Султанова
Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Во всем мире проблема обеспечения информационной безопасности проявляется как жизненная необходимость в реализации и защите интересов человека, общества и государства. Одной из угроз информационной безопасности являются общественно-политические угрозы, направленные против человечества, использующие информационно-коммуникационные технологии в своих корыстных целях. Становится все более очевидным, что во многих странах происходят попытки фальсификации информации в своих политических целях, и нападения на стратегические инфраструктуры стран наносят вред всему человечеству. Это требует проведения исследований по выявлению объективных и субъективных сторон информационных и идеологических факторов, разработке эффективных методов, инструментов и способов предотвращения различных идеологических рисков.

Появляющиеся в информационном пространстве нетрадиционные призывы обуславливают необходимость разработки новых подходов в вопросах обеспечения стабильности государства и общества. В результате в передовых научно-исследовательских центрах и международных аналитических центрах мира усиливается интерес к исследованию вопросов обеспечения информационной безопасности. Особенно с учетом воздействия информационной безопасности на национальную, региональную и глобальную безопасность, разработка эффективных инструментов и мер борьбы против угрожающих им опасностей составляют объект и теоретико-методологическую основу научных исследований.

Государственная политика в Узбекистане, направленная на обеспечение свободы и открытости информации, а также борьбу против информационных атак, неразрывно связана с процессами укрепления мира и стабильности в мире. В связи с этим, в государственной политике по информационной безопасности в Узбекистане вопросы обеспечения стабильности общества сегодня определены в реализуемой в Узбекистане Стратегии «Узбекистан – 2030» в качестве цели «по созданию необходимых условий для беспрепятственного использования всемирной сети Интернет, обеспечению кибербезопасности в национальном интернет-пространстве и повышению грамотности граждан в деле использования сети Интернет»[43].

Диссертационное исследование в определенной степени послужит реализации задач, вытекающих из Указа Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП–4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Указа Президента Республики Узбекистан от 8 февраля 2018 года № УП–5347 «О мерах по дальнейшему совершенствованию сферы информационных технологий и коммуникаций», Указа Президента

[43] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11- сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони// https://lex.uz/docs/6600413

Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», из распоряжение Президента Республики Узбекистан от 8 апреля 2019 года № Р–5465 «О мерах по разработке Концепции развития национальной идеи на новом этапе развития Узбекистана», из постановления Президента Республики Узбекистан от 22 ноября 2018 года № ПП–4024 «О мерах по совершенствованию системы контроля за внедрением информационных технологий и коммуникаций, организации их защиты», из постановления Президента Республики Узбекистан от 2 февраля 2019 года № ПП–4151 «Об организации деятельности Агентства информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан», из постановления Президента Республики Узбекистан от 31 мая 2023 года № ПП–167 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы обеспечения кибербезопасности важных объектов критической информационной инфраструктуры Республики Узбекистан».

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением республиканского научно-технического развития I.«Формирование системы и пути реализации инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Научно-методическую основу исследования составляют концептуальные и стратегические идеи Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева относительно процессов дальнейшего совершенствования политических технологий обеспечения информационной безопасности в условиях стабильного и последовательного развития Узбекистана, обеспечения стабильности в обществе[44].

Научные труды современных исследователей можно разделить на три группы: к первой группе относятся ученые, проводившие научно-исследовательскую работу по влиянию государственной политики информационной безопасности Узбекистана на стабильность общества, такие как Ганиев С.К., Худойкулов З.Т., Насруллаев Н.Б., Юлдашев А.Э., Исламов И., Каримов И.М., Тургунов Н.А., Гуломов Ш., Ботиров Ф.Б., Азизова З.И., Акбаров Д., Муитов Д.С., Кушаев У.Р., Насруллаев Н.Б., Касимова Н. и Умарова Н. Они может и не вели исследования именно по нашей теме, но их исследования близки к ИКТ, технологическим и техническим аспектам информационной безопасности, информационным молодежным аспектам. Ряд таких ученых, как

[44] Мирзиёев Ш. Обеспечение верховенства закона и интересов человека является залогом развития страны и благополучия народа. – Ташкент: Узбекистан, 2017. – 48 с.; Мирзиёев Ш. Критический анализ, строгая дисциплина и личная ответственность должны быть повседневным правилом деятельности каждого руководителя. – Ташкент: Узбекистан, 2017. – 104 с.; Мирзиёев Ш. Мы построим наше великое будущее вместе с нашим храбрым и благородным народом. – Ташкент: Узбекистан, 2017. – 488 с.; Мирзиёев Ш. Мы будем решительно продолжать наш путь национального развития и поднимать его на новый уровень. Том 1. – Ташкент: Узбекистан, 2018. – 592 с.; Мирзиёев Ш. Новая стратегия Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 2021. – 464 с.

Муродова Ш., Раджабов Х. и Юлдашева М.К. провели исследования с точки зрения политических наук.

Ко второй группе относятся исследования ученых стран СНГ, таких как Атаманов Г.А., Манжуева О.М., Захаров М.Ю., Перчук Е.Е., Немкина О.И., Каптюг Ю.А., Сиденова О.М., Поликарпов А.В., Ницэвич В.Ф., Вовендо Ю.В., Рахимзода Ш.К., Мельникова О.А., Курилкин А.В., Федорченко С.Н., Ромашкина А.Б. и других, которые проводили научные исследования по вопросам информационной войны, информационного терроризма, информационного оружия, правовых и психологических механизмов информационной безопасности, взаимосвязи виртуального мира и образа жизни человека, происхождения проблем информационной безопасности.

К третьей группе следует отнести исследования зарубежных ученых, таких как С.Хантингтон, Ф.Фукуяма, Д.Белл, А.Тоффлер, М. Кастельс, У.Ростоу, П.Друкер, Дж.Гэлбрейт, В.Иноземцев, Ф.Вебстер, А.А. Чернов, Р.Ф.Абдеев, И.С.Милюхин[45] и других. Они основали теорию об информации и информационной безопасности, конкретно исследовали проблемы информационной безопасности в концепциях «постиндустриальное общество» и «информационное общество».

При этом тематика их исследований и объекты исследования резко отличаются от темы нашей диссертации.

Анализ степени изученности проблемы показал, что вопросы обеспечения стабильности общества в государственной политике информационной безопасности до сих пор не исследовались в качестве специальной диссертации. В связи с этим в нашей диссертации мы выбрали тему, связанную с вопросами обеспечения стабильности общества в государственной политике информационной безопасности.

Взаимосвязь диссертационного исследования с научно-исследовательскими планами высшего образовательного учреждения, в котором выполняется диссертация. Диссертация была включена в план научно-исследовательских работ Андижанского государственного университета и выполнена в рамках фундаментального проекта кафедры «Теория гражданского общества» на тему «Проблемы развития гражданского общества».

Целью исследования является разработка предложений и рекомендаций по реализации национальной и информационной политики безопасности государства в процессе обеспечения стабильности общества и ее совершенствования.

Задачи исследования:

формирование характеристики понятий информационной безопасности;

раскрытие методологических аспектов информационной безопасности - категориального обзора и эволюции системы международной безопасности в качестве фактора стабильности общества;

[45] Исследования этих и других авторов приведены в списке литературы диссертации.

анализ разработок и опыта США, Европейского Союза и Китая в области информационной безопасности;

исследование формирования и развития правовых основ государственной политики информационной безопасности в Узбекистане;

анализ киберугроз информационной безопасности Узбекистана и процесса борьбы с ними;

научная характеристика процесса дальнейшего развития системы информационной безопасности в Узбекистане и ее перспективы;

разработка выводов, предложений и рекомендаций по дальнейшему развитию и повышению эффективности информационной безопасности в Узбекистане.

Объектом исследования является повышение роли государственной информационной политики в укреплении системы обеспечения стабильности общества в Узбекистане.

Предметом исследования являются особенности политики государства в сфере информационной безопасности, законодательства и общественно-политических отношений, возникающих при этом процессе, в обеспечении стабильности общества.

Методы исследования. В диссертации использованы методы исследования, такие как комплексный подход, диалектика научного познания, историзм, логика, анализ и синтез, сравнительный анализ, наблюдение, опрос.

Научная новизна диссертационного исследования заключается в следующем:

обосновано, что отсутствие единого и универсального механизма обеспечения информационной безопасности в мире, неполучение ожидаемого результата от государственной политики, направленной на ограничение цензуры и информационных потоков, а также уделение странами основного внимания на создание своих национальных контентов в защите стабильности государства и общества от внутренних и внешних информационных атак служат основанием для применения принципа «информация против информации»;

доказана необходимость разработки национальной информационной сети Узбекистана (UzNET), регистрируемой через домен «UZ», основываясь на опыт США, Китая и государств Европы, направленный на укрепление информационной безопасности, исходя из того, что в век информации традиционное общество, превратившись в информационное общество, в синтезе образует конвергенцию, конфиденциальность, связанная с защитой от угроз и вызовов информационной безопасности, доступом в информационные ресурсы, метатехнологиями;

обосновано предложение о создании в институтах махалли общественных центров «Кибербезопасность», исходя из задач по усилению борьбы против кибер и гибридной преступности, как основы обеспечения информационной безопасности, последовательному продолжению работ по

киберпрофилактике, направленных на предотвращение киберугроз, недопущения распространения подрывных идей с целью пробуждения идеологической, религиозной и политической вражды;

доказана необходимость принятия Национальной стратегии информационной безопасности Узбекистана, служащей совершенствованию эффективных механизмов обеспечения национальной информационной безопасности, исходя из государственной политики информационной безопасности, целью которой являются такие задачи, как обеспечение соблюдения законодательства в информационном пространстве Узбекистана, повышение грамотности и культуры использования информации, а также защита населения от воздействия чуждых и деструктивных сведений, предотвращение кибертерроризма и радикализации.

